MIXAIL NUAYMENING "BILAGUZUK" HIKOYASIDA IJTIMOIY MAVZULAR

Hamidova Gulnoza Sur‘at qizi

TDSHU Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik

fakulteti Arab filologiyasi kafedrasi 2-kurs talabasi +998997431449

suratabdullayev306@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.d **D.Muhiddinova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi davr arab yozuvchilaridan biri bo‘lgan Mixail Nuaymening “Bilaguzuk’’ hikoyasi adabiy va g’oyaviy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Hikoya, g‘oyaviy tahlil, obraz, badiiy tasvir, o‘xshatish, kulminatsion nuqta, psixologik tasvir, badiiy til, sujet ipi.

Annotation: In this article, the story of “The bracelet” by Mikhail Nuayme, one the Arab writers of new era, is analyzed idealogically and artistically.

Keywords: Story, idealogical analysis, image, artistic description, analogy, climax, psychological description, artistic language, subject thread.

Аннотация:В этой статье рассматривается литературный и идеалогический анализ рассказа "Браслет" Михаила Нуайме, одного из писателей современной арабской литературы.

Ключевые слова:Рассказ, идеалогический анализ, образ, художественный образ, кульминационная точка, психологический образ, художественный язык, сюжетная линия.

Jahon xaritasida 200 ga yaqin mustaqil davlatlar bo’lsa, ular bu maqomga erishish yo’lida turli jabr-u sitamlar tortgan. 1914-1918-yillarda davom etgan Birinchi jahon urushi esa deyarli barcha xalqlarni og’ir ahvolga solib qo’ygan. Sharqiy Osiyoda joylashgan va hududi uncha katta bo’lmagan Livan davlati ham bundan mustasno emas. Birinchi jahon urushi yakunidan so’ng Usmonli saltanatining arab xalqlariga to’g’ri keladigan hududlari Buyuk Britaniya va Fransiya o’rtasida taqsimlanishi kerak bo’lgan. Fransuz generali tomonidan 1920-yil Katta Livan davlati e’lon qilindi, 1926-yilda esa konstitutsiya qabul qilinib, respublika maqomini qo’lga kiritdi. Afsuski, o’sha davrda chigirtkalar galasining yopirilishi va Antanta ittifoqining qo’ygan iqtisodiy majburiyati natijasida aholining uchdan bir qismi ochlikdan qirilib ketgan. Livan davlatida fuqarolar urushi boshlanishi esa endi barqaror rivojlanishni boshlab olgan davlatni yana tanazzulga yetakladi. Falastindan qochib kelgan aholi esa davlatning ahvolini yana-da og’irlashishiga sabab bo’lgan. Fransiya davlati ta’siri natijasida fransuz tili arab tili kabi rasmiy maqomga ega edi. Davlatning eng muhim lavozimlar demografik jihatdan ko’pchilikni tashkil qilgan konfessiya vakillariga berilgan.

Mana shunday siyosiy vaziyat, aholining kambag’al qatlami huquqlarining yuqori tabaqalar tomonidan ayovsiz poymol qilinishi, milliy vatan, milliy til tuyg’usi Livan davlati aholisi orasida bundan nohaqliklarga chiday olmagan yetuk iste’dod sohiblarining turli janrlarda ijod qilib, aholini uyg’onishga chorlaydigan asarlar yaratishlariga sabab bo’lgan. Arab davlatlarida ma’rifatparvarlik bilan birga jahon durdonalari vujudga kela boshlaydi. Arab yozuvchilarining XX asr ikkinchi yarmidagi ijodida realistik metod- keng diapazonda- an’anaviy mumtoz

realizmdan tortib, eng zamonaviy modernistik shakllarga qadar ko'rindi. Ammo ramzlar bilan to'la asssotsiativ va murakkablashtirilgan uslubiy yo'llar yozuvchilarni (Jo'rj Salim, Najib Mahfuz, Gamal al-Gitani va b) voqelikni realistik idrok etishdan uzoqqa olib ketmaydi, balki unga chuqurroq kirib borish, jamiyatni hayajonlantirayotgan muammolarni o'tkirroq va keskinroq qo'yish imkonini beradi.[1] Albatta, ma'rifatparvarlar badiiy adabiyoti dastlab o'z ma'rifiy g'oyalari kitobxonga didaktik nasihatlar, soddalashtirilgan til orqali bevosita targ'ib qilar edi. Bular esa uning badiiy jihatini zaiflashtirar edi. Lekin shuni qayd etish lozimki, ayni shu ma'rifatparvarlik adabiyotidan XX asr boshida tanqidiy realizm ijodiy metodi o'sib chiqdi va adabiyotning yetakchi tasviriy tamoyiliga aylandi.[2] Shu kabi ijod bulog'idan qonib-qonib ichgan mashhur arab adabiyoti namoyandalaridan biri bu Mixail Nuaymedir. U 1889-yil Livan davlatining Baskinto qishlog'ida tug'iladi. Ukrainaning Poltava shahrida ta'lim olgach, ikki akasi bilan AQSh ning Vashington shtatiga ko'chib boradi. U yerda amerikalik aholi bilan o'zining vatandoshlarini solishtiradi va ijodini boshlaydi. Rus, arab, ingliz tilida o'z asarlarini yozgan Mixail Nuayme arab adabiyotining beshta asoschilaridan biri deb tan olingan. U mumtoz rus adabiyotining ta'sirida bo'lgan kam sonli muhojir arab yozuvchilaridan biri edi. 100 dan ortiq asarlar muallifining bir qancha hikoya, romanlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Uning har bir asarida psixologik tasvirlash, badiiy tildan keng foydalanish, voqealarni sujet ipiga ketma-ket joylashtirish mahorati yaqqol ko'zga tashlanib turadi. O'z ona vatanidan uzoqda yashagan bo'lsa-da, asarlarida arab xalqlarining odatlari, qiyinchilik bilan ko'rgan kunlari, Livan davlatidagi vaziyatlarni mahorat bilan tasvirlagan. 1920-yil Nyu-Yorkda arab muhojirlari bilan yaqin bo'lib, shu yilda arab adabiyotini tiklash uchun "Qalam uyushmasi" ("Robita al-Qalamiyya") peshqadami Jubron Halil Jubronning sekretari bo'lib faoliyat yuritadi. Umrining so'ngida esa Livan davlatining Bayrut shahriga kelib shu yerda vafot etadi.

Mixail Nuayme 100 dan ortiq asar, 31 ta kitob, bir qancha esse, roman, ijtimoiy va siyosiy maqolalar muallifi bo'lsa-da, uning adabiy merosida hikoyalari muhim ahamiyatga egadir. Ular orasida ham "Bilaguzuk" nomli hikoyasi o'quvchiga yetkazib beradigan mavzuning keng ko'lamli ekanligi bilan ajralib turadi. Hikoya muallif tilidan bayon qilingan bo'lib, bahor tasviri bilan boshlanadi. Atrof va holat ikki-uch gap bilan tasvirlansa-da, o'quvchi darrov o'sha vaziyatga tushib voqealar rivojida qatnashayotgandek his qiladi: tun bahor nafasiga, oy nuriga va jimjitlikka to'la. Bunday kechada yuraklar ehtiros bilan uradi, ayniqsa, sevishganlarning yuraklari.[3] Fuad va Surayyo (hikoya obrazlari) suhbatlari boshlanishi bilan ikki inson xarakteri qandayligi namoyon bo'la boshlaydi. Ularning bolalikdan birga o'sib-ulg'ayganlari, bir-birini yaqin do'st sifatida qabul qilishlari o'zaro munosabatlaridan sezilib turadi. Avvaliga Fuadning mujmal so'zlari, o'zini qanday tutishi o'quvchining tezroq nima bo'layotganligiga aniqlik kiritishga undaydi: yo'q, yo'q…Kechir, Surayyo. Mening tilimni bog'langanday…[4] Suhbat davomida Fuad o'zining o'g'ri ekanligini tan oladi va bunga nima undaganini tushuntirib beradi. Asarda kambag'al inson hayotidan bir parcha berilgan bo'lsa-da, bu hikoya o'sha davrda insonlarning qashshoq qismi qiynalgani, boy odamlar ularni qanchalik yer bilan bitta qilganini yoritib bergan. Hikoyada shunday iqtibos uchraydi: „ Kambag'allik sharmandalik emas, sharmanda qiladigan kambag'allikdagi haqorat va kamtarlikdir"[5]. Mablag' yetishmovchiligi sabab onasi yonida farzandlik burchini bajara olmayotganligi, qarz so'rab borganida do'stidan eshitgan haqoratli gaplari uning boshi berk ko'chaga kirib qolishiga sababchi bo'lishiga Fuad so'zlari yakunida guvoh bo'lamiz: mening tomirlarimda qon oqayotganda onam o'lim to'shagida

[1]Akbarova M. Yangi davr arab adabiyoti.118-bet.
[2] Xo'jayeva R.U. Yangi davr arab adabiyoti tarixi. 25-bet.
[3] Mixail Nuayme, „ Bilaguzuk" hikoyasi 1-bet.
[4] Mixail Nuayme, „Bilaguzuk'' hikoyasi 2-bet.
[5] Mixail Nuayme, „Bilaguzuk'' hikoyasi 5-bet.

yotadimi? Yo'q, u o'lmaydi! Men unga shifokor keltiraman, dori-darmon olib, pul topaman. Men o'z nafsoniyatimdan voz kechdim va hech narsaga erishmadim.[6] Fuadning yordamida imtihonlardan o'tib, diplomini qo'lga kiritgan Farid ismli yengiltak, behudaga pulni sarflaydigan yigitning yoniga borib, onasi uchun qarz so'raganida do'stlari orasida uni haqorat qilishi Fuadning qalbidagi o'tni alangalatib yuboradi: nima uchun yuvuvchi ayolning o'g'liga universitet diplomi? Bor, pul topish uchun ishla va o'z darajangdan yuqoriroq ko'tarilishga harakat qilma. Bu tilanchilikdan yaxshiroq[7]. Albatta, bu so'zlar inson nafsoniyatiga qanchalar tegib ketishini barchamiz his qila olamiz, Fuadning o'rnida bo'lganimizda biz ham, balki, alamimizni olishga, mo'tabar onamizni davolatishga pul topish uchun o'g'rilik qilishimiz mumkin edi, lekin hammamiz ham shu hikoya qahramoni singari qilgan ishimizdan vaqtida pushaymon bo'lamizmikan?

Darhaqiqat, kambag'allar orasidan ham yutuk salohiyatli, ilmga chanqoq insonlar tez-tez uchrashi, bolaligida hech qanday kamchiliksiz voyaga yetgan boy insonlarning arzandasi kalondimog' va burni ko'tarilgan bo'lib tarbiya topishiga hikoya orqali yana bir bor amin bo'lamiz.

Ammo o'g'irlik qilingan bo'lsa-da, oxirida undan afsuslanish va vijdon azobi, or-nomus, o'g'rilikni o'ziga ep ko'rmaslik hikoyaning kulminatsion nuqtasidir. Onaga bo'lgan farzand mehri, g'urur va nafsoniyatni tiyishi, qilgan ishlaridan pushaymonlik esa vijdonni suyakday kemirishi o'sha adabiy qahramon hissiyotlarini o'quvchiga yuqishini ta'minlaydi va Fuad qalbini tirnayotgan gaplarni aytgani sari beixtiyor unga sherik bo'ladi: Lekin bu holatda qolmayman. Onasi o'lsa ham, o'zi o'lsa ham ular halol yashash o'lishadi. Yo'q, Fuad o'gri bo'lib o'lmaydi, u faqat adolatsizlik va pastkashlikka qarshi chiqib o'ladi. Men senga qasam ichaman.[8]

Yozuvchining mahoratiga qoyil qolmay iloj yo'q. Asarda bilaguzukning chayonday tashlanishi, Fuadning bir barg singari titrashi va yaralangan qush kabi xirillashi singari o'xshatishlarning qo'llanishi voqealarni tasavvur qilishga yordam beradi:

…Fuad cho'chib ketdi, xuddi qattiq uyqudan uyg'onib ketganday, birdan badani qaltirashga tushdi…[9]

…Fuad bir barg singari titradi, yaralangan qush kabi xirilladi. Qaltirashini to'xtata olmay, tez-tez nafas oldi va Surayyo uning kasal bo'lib qolishidan qo'rqib ketdi…[10]

…Nihoyat Fuad qo'lini cho'ntagiga soldi, undan nimadir oldi va shoshilib chayonni tashlaganday Surayyoning tizzasiga uni otdi…[11]

Hikoya yakunida Fuad va Surayyoning hibsga olinganligi va rasmiy shaxslar bu juftlikni mamlakatning xavfli vakillari deb hisoblashlari haqida malumot berilgan. Fuad va Surayyoning xarakteri, dunyoqarashlaridan ular davlatda adolat qaror topishiga harakat qilishganini taxmin qilishimiz mumkin. Asarning bu tarzda yakunlanishi o'quvchining o'zi xulosa qilishiga yo'l ochib beradi. Shu oddiy hikoya u bilan tanishgan kitobxonlarda katta taassurot qoldiradi, Asarda Fuad tilidan aytilgan har bir jumla insonlarni o'yga toldiradi va halol yashashga undaydi. Vaqtlar

[6] Mixail Nuayme, „ Bilaguzuk" hikoyasi 5-bet.
[7] Mixail Nuayme, „ Bilaguzuk" hikoyasi 5-bet
[8] Mixail Nuayme, „ Bilaguzuk" hikoyasi 5-bet.
[9] Mixail Nuayme, „Bilaguzuk'' hikoyasi 1-bet.
[10] Mixail Nuayme, „ Bilaguzuk " hikoyasi 3-bet.
[11] Mixail Nuayme, „ Bilaguzuk" hikoyasi 3-bet.

o’tsa ham, vijdon, or-nomus mavzusi barcha davrlarda o’z ahamiyatini yo’qotmagani kabi bu asar ham doimo sevimli bo’lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Xo’jayeva R.U. Yangi davr arab adabiyoti tarixi. -T.,2004.
2. Akbarova M. Yangi davr arab adabiyoti tarixi. -T.,2005.
3. Mixail Nuaym, Bilaguzuk.
4. www.uz.m.wikipedia.org
5. www.en.wikipedia.org